



BIOLOGIYANING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

20-21 sentabr 2024
Toshkent



“Biologiyaning jamiyatdagi ahamiyati”

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL
BIOLOGIYASI INSTITUTI**



**BIOLOGIYANING JAMIYATDAGI
AHAMIYATI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
TO‘PLAMI**

2024 yil 20-21 sentabr

Toshkent-2024

“Biologyaning jamiyatdagi ahamiyati”

JO‘RAYEV J.N., KURBANBAYEV I.DJ. GLYCINE MAX L. TURIGA MANSUB MAHALLIY SOYA NAV-NAMUNALARINING SHONALASH DAVRIDAGI ILDIZ TUGANAKLARI SONI TAHLILI.....	86
MAMAJANOV A.B., DARMANOV M.M., XUSENOV N.N., NARMATOV S.E. G‘O‘ZA GENOTIPLARINING TUZLI STRESS MUHITIDA POYA, ILDIZ VA UMUMIY UZUNLIK BO‘YICHA MORFOLOGIK TAHLILASH	88
MAMARASULOV O’Z., N.E.CHORSHANBIYEV INGICHKA TOLALI G‘O‘ZA TIZMALARINI TEZPISHARLIGI BO‘YICHA BAHOLASH.....	89
MAMEDOVA F.F., KURBONOV A.Y., HAMIRAYEV O’.Q. KONKURS NAV SINASH KO‘CHATZORIDA O‘RGANILGAN QO‘NG‘IR TOLALI T-177 TIZMANING QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARI.....	91
MATKARIMOV F.I. BABOEV, S.K. MIKROBIOLOGIK O‘G‘ITLARNING NO‘XAT O‘SIMLIGI DONI TARKIBIDAGI UMUMIY OQSIL MIQDORIGA TA’SIRI.....	94
RAHIMOVA G.X., NABIEV S.M., ADXAMOVA Y.D RANGLI TOLALI NAV NAMUNALARINING F ₁ DURAGAYYLARIDA O‘SIMLIK MAHSULDORLIGI BELGISINING IRSIYLANISHI VA GETEROZIS SAMARASI.....	97
BAKHTIYOR A. RASULOV, MOHICHEHRA A. PATTAEVA, MAKHAMMADJON G. KOSIMOV NA ⁺ /CA ⁺² -INDUCED STRESS MITIGATION BY BIO-ORGANIC TREATMENT IS A KEY FACTOR IN ORGANIC COTTON PRODUCTION IN SALT-AFFECTED SOILS	100
SAMATOV A.Q., AMANOV B. X. XASHAKI NO‘XAT (<i>LATHYRUS SATIVUS L.</i>) NING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI	102
SODIQOVA M.B TURLI MINTAQALARGA MANSUB KUZGI BUG‘DOY NAV NAMUNALARIDAN SARIQ ZANG KASALLIGIGA CHIDAMLI HOSILDORLIGI YUQORI DONORLAR TANLASH	104
TO’LQINOVA X.SH. SUV BILAN OPTIMAL TA’MINLANGANLIK VA SUV TANQISLIGI SHAROITLARIDA O’RTA TOLALI G‘O‘ZA GENOTIPLARIDA BITTA O‘SIMLIKDAGI HOSIL SHOXLAR SONI BELGISINING KO‘RSATKICHLARI.	108
TURSUNOV M., NARIMANOV A.A., SANAYEV N.N ERGASHEV M. G‘O‘ZANING TRIPS VA BOSHQA ZARARKUNANDA-HASHOROTLARI BILAN ZARARLANISHINI QIYOSIY BAHOLASH	110
XAKIMOV A.E., NARIMANOV A.A., ELMURODOV A.B. MOSH EKININI AHAMIYATI VA YANGI NAV KO‘RSATGICHLARI	113
XAMDULLAEV SH.A., NABIEV S.M., SHAVQIEV J.SH., AZIMOV A.A., RAXIMOVA G. TABIIY RANGLI VA OQ TOLALI G‘O‘ZA GENOTIPLARINING QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLILIK XUSUSIYATLARI	117
XALIKOV Q.Q., GAPPAROV B.M., KUSHANOV F.N. G‘O‘ZANING AYRIM RANGLI NAV VA TIZMALARIDA TOLA CHIQIMI KO‘RSATKICHLARI.....	119
XOLIKOVA M.A., BOLTAYEVA M.D. TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN AYRIM SOYA NAVLARINING DUKKAKLASH KO‘RSATKICHLARI	121
XOLLIYEV O.E., QULMAMATOVA D.E. YASMIQ (<i>LENS CULINARIS MEDIK</i>) URUG‘LARI UNUVCHANLIGI VA UNISH KUCHI TAHLILI.....	124
YULDASHOV O‘. X., MATNIYAZOVA H.X., NABIEV S.M. SUV BILAN TURLICHA TA’MINLANGANLIK VA SHO’RLANGAN SHAROITLARIDA RANGLI TOLALI G‘O‘ZA NAMUNALARI BARGLARIDAGI PROLIN AMINOKISLOTASI MIQDORI	126

“Biologivaning jamiyatdagi ahamiyati”

Genofond-2×A-2953 kombinatsiyasida esa 33,1 % ni tashkil etdi. Belgining avlodga berilishi barcha kombinatsiyalarda o‘rtacha (mos ravishda $h^2 = 0,70$; $h^2 = 0,74$;) darajada namoyon bo‘ldi.

Shunday qilib ajratib olingan ushbu namunalar kelgusi genetik-seleksion dasturlarda sifatli rangli tolali navlar yaratishda va donor sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Egamberdiyev A.E., Ibragimov Sh.I., Amanturdiyev A.B. G‘o‘za seleksiyasi, urug‘chiligi va biologiyasi. - Tashkent: Fan, 2009. - B. 52-53
2. Nazarov R.S., Nurmatov Sh. va boshq. suv tanqisligida Toshkent viloyati sharoitida g‘o‘zadan mo‘l hosil yetishtirish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent, 2009. 54 bet.

TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN AYRIM SOYA NAVLARINING DUKKAKLASH KO‘RSATKICHLARI

Xolikova M.A., Boltayeva M.D.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Toshkent viloyati Chirchiq shahri A.Temur ko‘chasi 104
uy . holiqova1981@mail.ru*

Mamlakatimizda kuzgi boshoqli don ekinlari yig‘ishtirib olingenidan keyin, ularning o‘rniga takroriy ekinlar yetishtirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. Aytaylik, boshoqli don ekinlari 15–20 iyun muddat oralig‘ida yig‘ishtirib olinsa, undan keyin to‘rt oy, ya’ni 120–130 kun issiq haroratlari kunlar davom etadi. Shu oylar mobaynida 1600–1800°C foydali harorat yig‘indisini zaminimiz qabul qiladi. Bu esa respublikamizda kuzgi boshoqli don ekinlaridan keyin takroriy ekinlar ekish orqali bo‘sh qolgan yerlardan unumli foydalanib hosil olish imkoniyatini beradi [2.1.9.].

Oddiy soya turining ildizi yaxshi rivojlangan, o‘q ildiz, sershox, tuproqqa 2 m chuqurlikkacha kirib boradi, asosiy qismi haydalma qatlamda joylashadi (ildizida tiganak bakteriyalar rivojlanadi)[2.5.8.]

Soya o‘simgilining poyasi dag‘al, silindrsimon, tik o‘sadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Bo‘yi 15 sm dan 2 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2-8 ta bo‘ladi. Bargi sertuk, bandli, bandining uzunligi 8-20 sm, barg shapalog‘ining uzunligi 13-15 sm, guli mayda, oq yoki pushti, shingil gul to‘plamga yig‘ilgan, barg qo‘ltig‘ida joylashadi.

Mevasi dukkak, sariq, qora, qo‘ng‘ir, sertuk. Har bir dukkagida 2-6 ta don bor, 1000 ta doni vazni 40-425 g.ni tashkil etadi. Tarkibida 24-45% oqsil, 13-37% yog‘, 20-32% uglevodlar, 1-2 % litsitin, D, V, E va boshqa vitaminlar bor. Urug‘idan yog‘, oqsil va litsitin olinadi.soya urug‘i bug‘doy etishtirib olingandan keyin 15 va 10-iyul kunlari oralig‘ida ekiladi. O‘suv davri 75-200 kun davom etadi. Soya issiqsevar va namsevar, yorug‘sevar o‘simgilik hisoblanadi. 21-

“Biologyaning jamiyatdagi ahamiyati”

23°C da yaxshi rivojlanadi. Soya o‘zidan changlanadi. Gullash davri 15-55 kun davom etadi[2.10.4.].

Bu o‘simlikning yana bir xususiyati shuki, dukkaklilar oilasiga mansub bo‘lgani uchun o‘zidan keyin tuproqda 55–60 kg sof azot qoldirib ketadi. Bugun mamlakatimizda tuproq unumdorligini tiklash yoki uni bor holida saqlab qolishdolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Soya o‘sib-rivojlanayotgan davrda dalaga katta miqdorda mineral o‘g‘itlarni solishga hojat yo‘q, o‘simlikning o‘zi havodan azotnio‘zlashtirib, foydalanish imkoniga ega.

Takroriy ekin sifatida ekilgan soya suv va shamol eroziyasining zararli ta’sirini kamaytiradi, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va uning ikkilamchi sho‘rlanishi kamayadi. U bug‘doy hosilidan bo‘shagan dalalarga ekilganda ekinzor mikroiqlimi, dala fitosanitar holati, tuproqdagi mikrobiologik jarayonlar yaxshilanadi. Respublikamizda takroriy ekin sifatida ekiladigan navlardan o‘suv davri 91–110 kun bo‘lgan navlar ekilgani ma’qul[3.4.5.].

Yuqorida ma’lumotlarga asoslangan holda biz Samarqand viloyati xududida takroriy ekin sifatida xorijiy va mahalliy soya navlarini ekib, ularning bir qator morfologik va qimmatli-xo‘jalik belgilarini o‘rgandik.

O‘simliklarning turlari va navlari o‘zaro irsiy xususiyatlari, vegetatsiyasining davomiyligi, morfofiziologik xususiyatlari va chidamliligi bo‘yicha farqlanadi[11.7.8.].

Tadqiqotlarimiz 2021 yillarda Samarqand viloyatida olib borildi. Bunda Respublikamizda keng maydonlarga ekilayotgan navlar tanlab olinib, Samarqand viloyatida bug‘doy xosili yig‘ib olingandan so‘ng, erni ekishga tayyorlab, takroriy ekin sifatida ekildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida Samarqand viloyatida Rossiya seleksiyasining Sparta navi va Qozog‘iston seleksiyasining Nina navlari, mahalliy navlardan Oyjamol, Ustoz, To‘maris navlari ekib o‘rganildi. Tadqiqot manbai dukkaklash davrida maxalliy va xorijiy soya navlarida morfologik belgilardan dukkaklash belgisi o‘rganildi[4.9.6]. Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoitlarida turli xorijiy va mahalliy soya navlarining bioekologik va morfofiziologik xususiyatlaridan o‘simlikning dukkaklash fazasi 2021 yilda o‘rganilganda quyidagicha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lindi (jadval-1).

jadval-1.

Nº	Navlar	X	G	V
1	Nina	84,8±5	23,5	22,5
2	Sparta	118,3±7	20,6	17,5
3	Oyjamol	88,9±7	23,5	26,4
4	Ustoz	89,4±4	11,7	13,1
5	Tumaris	115,2±4	11,2	9,8

“Biologivaning jamiyatdagi ahamiyati”

Dukkaklash belgisi buyicha 2021 yilda yuqori ko‘rsatkichga xorijiy navlarda Sparta (mos ravishda $118,3\pm7$) mahalliy navlarda Tumaris navi (mos ravishda $115,2\pm4$), eng past ko‘rsatkich esa xorijiy navlarda Nina navi (mos ravishda $84,8\pm5$) kuzatildi.

Demak, soyani O‘zbekiston sharoitida etishtirish bilan tuproq boyitiladi, aholi sifatli oqsil va o‘simlik moyi bilan ta’minlanadi,sanoat, charvachilik, tibbiyot, texnika uchun turli mahsulotlar tayyorланади.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ataboeva H.. Soya. Toshkent 2004 y.
2. Yormatova D.E. Soya.-T:. Mehnat, 1991.-96 bet
3. Kholikova M.A., Matniyazova K.Kh.and all. Morpho-economical Indicators of Some Local and Foreign Soybean Varieties Planted as Main Crops. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192 7319-7321b.
4. Kholikova M.A., Matniyazova K.Kh “Fertility indicators of some local and foreign soy Varieties planted as main crops”. Academic Research in Educational Sciences ISSN 2181-1385Volume 1, ISSUE 1September
5. Matniyazova H. Kh, Nabihev S. M, Abzalov M. F., Kholiqova M. A., Yuldashev O. “Some Physiological Indicators of Domestic and Foreign Soybean Varieties under Different Water Regimes”. International Journal of Science and Research (IJSR). ResearchGate Impact Factor SJIF Volume 8 Issue 9, September 2019. 389-392 bet.
6. Matniyazova H. X, Xoliqova M. A., Mavlonova G. D., Nabiev S. M., Abzalov M. F.“Turli suv rejimi sharoitida soya navlarining ayrim fiziologik ko‘rsatkichlari”G‘o‘za va boshqa ekinlar genofondi bioxilma-xilliklarini o‘rganish, rivojlantirish, saqlash va samarali foydalanish istiqbollari»mavzusidagi xalqoro ilmiy anjuman materiallari.Toshkent.2020 yil 20-21 oktyabr. 127-129 bet.
7. Norqulov U., Sottorov O., Axmurzayev Sh.”Sug‘orish tartiblarining soya navlari dukkaklar soniga ta’siri”. Agro ilm- O‘zbekiston Qishloq va suv xo‘jaligi. 2019 yil Maxsus Son.25 bet
8. Sattarov M., Saitkanova R., Otamirzaev N. va b. “Samarqand viloyatida soya etishtirish agrotexnologiyasi”. // Tavsiyanoma. Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent – 2017
9. Sattarov M., Ahtamov M., Hayitov M., va b. “Navoiy viloyatida soya etishtirish agrotexnologiyasi”. // Tavsiyanoma. Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent – 2017
10. Xalilov N., Artiqov Z. va b. “Soyaning yangi navlarini parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar” Toshkent.
11. Xoliqova M. A., Matniyazova H. H., Azimov A. A.. ”Takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning ayrim mahalliy va xorijiy navlarining morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlari”. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. №3 (81) 2020 yil. 110-113bet.